

Dilnoza MAZLITDINOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

E-mail: dilnozaannafi@gmail.com

Tel: (88) 185 8808

O'zMU professori, f.f.d R.Shirinova taqrizi asosida

**RECREATION OF THE NATIONAL CONCEPTUAL SPHERE AND
THE NATIONAL CHARACTERS IN THE TRANSLATION WORKS
BY HASAN TORABEKOV**

Annotation

This article analyzes problems of re-creating the image of national heroes and the original conceptual sphere while translating a work of art from one language to another. We reviewed one of the great works of the famous French writer Stendhal, translated into Uzbek by Hasan Torabekov "The Charterhouse of Parma".

Key words: national conceptual sphere, the image of national heroes, art of word, art of translation, recreation.

**ВОССОЗДАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ КОНЦЕПТОСФЕРЫ И ОБРАЗА
НАЦИОНАЛЬНЫХ ГЕРОЕВ В ПЕРЕВОДЧЕСКИХ РАБОТАХ
ХАСАНА ТУРАБЕКОВА**

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы воссоздания образа национальных героев и концептосферы при переводе художественного произведения с одного языка на другой. Была рассмотрена одна из великих работ известного французского писателя Стендяля, переведенная на узбекский язык Хасаном Турабековым, «Пармская обитель».

Ключевые слова: национальная концептосфера, образ национального героя, искусство слова, искусство перевода, воссоздание.

HASAN TO'RABEKOV TARJIMA ASARLARIDA MILLIY KONTSEPTOSFERA VA MILLIY QAHRAMONLAR OBRAZINING QAYTA YARATILISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda asliyatdagi kontseptosfera va milliy qahramonlar obrazining qayta yaratilishi, uning to'laqonliligin bera olishdagi muammolar tahlil etiladi. Bunda mutarjim Hasan To'rabelev tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan mashhur frantsuz adibi Stendalning yirik asarlaridan biri "Parma ibodatxonasi" ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy kontseptosfera, milliy qahramon obrazi, so'z san'ati, tarjima san'ati, qayta yaratish.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek tarjimonlari orasida ma'lum bir «ixtisoslashish» ro'y bera boshladidi, ya'ni tarjimonlar bir muallifning ijodiga qayta-qayta murojaat eta boshladilar. Shu davrda Buyuk frantsuz yozuvchisi Mari Anri Beyd – Stendalning (1783-1842) Hasan To'rabelev qiyofasida o'zbek tilida tarjmoni paydo bo'ldi. Mutarjimimiz tomonidan adibning ikki shoh asari «Qizil va qora» va «Parma ibodatxonasi» romanlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi tarjimachiligidan va adabiyotimizda katta voqealardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Stendal asarlarining poetikasi, ularning falsafiy-axloqiy problematikasi Frantsiya adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Stendal o'z asarlarida butun diqqat-e'tiborini nafaqat asar qahramoniga, balki o'zi tasvirlayotgan barcha personajlarga ham qaratadi, ularning taqdirli bosh qahramon taqdiridan kam qiziqtirmaydi uni. «Parma ibodatxonasi» romani ham shunday asarlardan biri.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oxirgi 10 yillarda ilm fanda «kontsept» va «kontseptosfera» tushunchasi katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Buni qator tilshunoslarimiz, adabiyotshunoslarimiz izlanishlarida ko'rishimiz mumkin. «Kontsept» atamasi ilk bor 1928 yilda S.A. Askoldov tomonidan uning «Kontsept va so'z» maqolasida tahlil etilgan. Unga ko'ra «kontsept» bir turdag'i ko'plab predmetlarning fikrlash jarayonidagi ongli shakllanishidir [1, 267]. «Badiiy

kontsept» tushunchasi ham aynan shu olim tomonidan kiritilgan bo‘lib, u badiiy matnlarni kontseptlar prizmasi (tarixiy, ijtimoiy, maishiy, madaniy va adabiy) orqali o‘rganish zarurligini aytadi. Bundan tashqari bir qator olimlar, jumladan, D.S.Lixachev, A.P. Babushkina, Y.YE. Proxorov, V.G.Zusman va boshqalar «kontsept», «kontseptosfera», «madaniy kontsept» va «badiiy kontsept» atamalarini tahlil etganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki, bir asarni asliyatdan ikkinchi bir tilga tarjima qilish tarjimondan katta ma’suliyatni talab qiladi, zero noto‘g‘ri tanlangan muqobil tarjima asliyatning mazmuniga, uning g‘oyasiga putur yetkazishi aniq. «Parma ibodatxonasi» asarida ham boshqa asarlar singari tarjima qilish qiyin bo‘lgan iboralarni uchratamiz va o‘zbek mutarjimi mazkur muammolarga qanday yondoshganini tahlil etish uchun tarjima asarni uning ruscha muqobili va kezi kelganda asliyati bilan solishtirib tahlil etamiz.

Tahlil va natijalar. H.To‘rabekov «Parma ibodatxonasi»ni o‘zbekchaga N.Nemchinovaning ruscha tarjimasidan ag‘dargan. Uchchala matnni (frantsuzcha-ruscha-o‘zbekcha) taqqoslash jarayonida ko‘pgina mushtarak jihatlar ayon bo‘ldi. Hasan To‘rabekov asarni tarjimada qayta yaratishda hatto bir qarashda ahamiyatsizdek tuyulgan detallarga ham e’tibor bergen.

Asar qahramoni Fabritsio romannavisning barcha fikrlari, orzu-o‘ylarining badiiy ifodasidir. U romanning qator joylarida Fabritsioning frantsuz ekanligiga urg‘u beradi. Jumladan, quyidagi misolda:

«У Фабрицио была одна черта, родившая его с французской молодежью: он серьёзно относился к любимой лошади и к излюбленной газете, чем к своей благомыслящей любовнице». [2, 79]

Ushbu jumla o‘zbek tiliga quyidagicha o‘girilgan:

«Fabritsioning frantsuz yoshlariga xos jihatni bor edi: u o‘zining yaxshi ko‘radigan oti va sevimli gazetasiga andishali ma’shuqasiga nisbatan jiddiyroq munosabatda bo‘lardi» [3, 89]. Bu yerda albatta ruscha «черта, родившая его с французской молодежью» o‘zbekcha «frantsuz yoshlariga xos jihat»dan yuz chandon yuqori. «Xos jihat» har qanday odamda bo‘lishi mumkin, biroq «родившая черта» hammada ham bo‘lavermaydi.

Asar davomida Stendal frantsuzlar bilan italyanlarni taqqoslab boradi. Ruschada:

«Этот министр, вопреки его легкомысленному виду и галантному обхождению, не был наделан душой французского склада; он не умел забывать горести». [2, 84]

O‘zbekcha tarjimasi:

«Yengiltak ko‘rinishiga va nazokatli muomalasiga qaramay bu ministrning qalbi frantsuz taxlit emasdi: u g‘am-g‘ussalarni unutib yuborishni bilmasdi» [3, 94].

Bu yerda o‘zbek mutarjimi ruscha matndan farqli ravishda italyan ministrini «frantsuz taxlit emasdi» deb yozuvli ajratib ko‘rsatib, ikki millat vakillari o‘rtasidagi farqni yanada bo‘rttirib ko‘rsatadi.

Jina del Dongo dastlab ministrning taklifiga rozi bo‘lmaydi. Ruscha matn:

«- А вы понимаете, что предложили мне совершить безнравственный поступок? – сказала графиня». [2, 91]

O‘zbekcha tarjimasi:

«- Siz menga odobsiz ish taklif qilayotganingizni tushunasizmi o‘zi? – dedi grafinya» [3, 102].

Bu ministr uchun odobsiz ish emas, oddiy holat edi. Ruscha matn:

« - Не более безнравственный, чем все то, что творится при нашем дворе и двадцати других дворах. Самодержавная власть удобна тем, что она все освещает в глазах народов, а раз смешного не замечают, значит, его и нет». [2, 91]

O‘zbekcha tarjimasi:

« - Bizning saroyimizda va bo‘lak yigirmata poytaxtning saroylaridagi ahloqsizliklar oldida bunisi hech gap emas. Mustabid hokimyatning shunisi qulayki, u xalqlarning ko‘z oldida istagan narsasini tabarruk qilib beradi. Hamonki odamlar kulgili narsani sezishmas ekan, demak u yo‘q narsa» [3, 102].

Bu yerda yuqori tabaqa vakillarining, ministrlarning italyancha dunyosini kuzatishimiz mumkin. Chindan ham italyanlarning dunyosi, ruhiyati

frantsuzlarnikidan farq qiladi. Bu haqda Parma shahzodasi Ernesto IV ham gapiradi. Ruscha matn:

«Эрнесто IV часто повторял, что главная цель наказания – потрясти страхом воображение подданных.

– *Навеки* – это грозное слово, - говорил он, - а в Италии оно пугает еще больше, чем в других странах». [2, 99]

O‘zbekcha tarjimasi:

«Ernesto IV o‘qtin-o‘qtin jazolashdan asosiy maqsad – fuqaroning diliga vahima solishdur, deya takrorladi.

- Umrbod – bu dahshatli so‘z, - deguvchi edi u. – Italiyada u odamlarning diliga boshqa mamlakatlarga qaraganda ko‘proq g‘ulg‘ula soladi» [3, 111].

Mutarjim asar qahramonlarining tinimsiz va hayajonli sarguzashtlarini, qochib yurishlarini, ta’qib etilishlarini, kurashlarini ham o‘zbek tiliga mohirona ag‘dargan, urushning realistik tasvirini to‘la saqlay olgan. Unga bu ishda tarjimonga xos sezgirlik, orttirgan tajribasi va nihoyat, ona tilimizning boy imkoniyatlari katta yordam bergen.

Tarjimon romandagi ikkinchi darajali obrazlarni qayta yaratishga ham katta e’tibor bergen. Bu borada ma’lum bir qahramonni ta’riflovchi eng kichik detallarni, nozik nuqtalarni ham ularga xos bo‘lgan barcha atamalar va jargonlar bilan ochib bera olgan. Jumladan, Fabritsioning Napoleon armiyasi ortidan ketishida yo‘lda uchragan markitant ayol unga quyidagicha maslahat beradi. Ruscha matn:

«Слушай, если у тебя еще осталось хоть немного золотых *кругляшек*... тебе, прежде всего надо купить другую лошадь». [2, 34]

O‘zbekcha tarjimasi:

«Menga qara, agar... oltin mullajiringdan ozgina qolgan bo‘lsa, avvalo boshqa ot sotib olishing kerak» [3, 38].

Keltirilgan misolda tarjimon birgina so‘z – mullajiring, ya’ni savdogarlarga xos jargонни ishlatish orqali qahramon nutqining o‘ziga xosligini aks ettirgan va butun kontekstni ham ifodalagan.

“Aynan kontekst – tor ma’nodagi va keng ma’nodagi kontekst – tarjimada o‘zga tilga mansub so‘zlarning ma’nosini berishda, ya’ni ona tilida jumlalar tuzish uchun zarur so‘zlarni tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga egadir”. [4, 133] Ona tilida tuzilgan jumla, uning ma’nosи undan oldin va keyin keluvchi jumlalarning ma’nosи bilan, butun abzats va parchaning ma’nosи bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli “agar jumla kontekst bilan o‘ralgan bo‘lsa, u o‘z ma’nosini (M.Baxtin ta’kidi) faqat shu kontekstdagina to‘liq saqlaydi. Shuning uchun noto‘g‘ri tanlangan oddiy bir so‘z ham oxir oqibatda asliyatning mazmunini buzib ko‘rsatishga olib kelishi mumkin. Natijada bunday tarjima adekvat (to‘laqonli) tarjima bo‘lmay qoladi. Tarjimaning to‘laqonligi asliyatning ma’no tarkibini to‘liq ifodalashdan va unga to‘liq funktsional-stilistik muqobillikdan iboratdir” [5, 276]. (tarjimalar bizniki – D.M.)

«Parma ibodatxonasi»ni varaqlar ekanmiz, mutarjim asarning ruscha muqobilidagi «*крошить саблями*» – «*qilichdan o‘tkazmoq*», «*точно бараны бегут*» – «*xuddi qo‘y podasiga o‘xshab qochishyapti*» *kabi iboralar va hatto quyidagicha* «*Только пошевелись, крышка тебе!*» – «*Qimir etib ko‘r-chi, naq peshonangdan darcha ochib qo‘yaman!*», «*Если заартачишься – пристрелю*» – «*Agar g‘ing desang, otib tashlayman!*» singari butun jumlalarga ham muvaffaqiyatli muqobillar topganini ko‘ramiz.

Xulosa va takliflar. Ma’lumki, bir xalq tilidagi maqol, matal va idiomalarni ikkinchi bir tilga tarjima qilish tarjimondan katta ma’suliyatni talab qiladi, aks holda noto‘g‘ri tanlangan muqobil tarjima asliyatning mazmuniga, uning g‘oyasiga putur yetkazishi aniq. «Tilning asl qaymog‘i, uning o‘ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko‘rsatadigan, boshqa tillar o‘rtasida tutgan o‘rnini tayinlashda muhim omil bo‘lgan narsa – undagi maqol, matal, idioma va boshqa shu kabi ko‘chma ma’noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishning g‘oyat murakkab va muhim ish ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazariyasining asosiy problemalari qatoriga kiritishga sabab bo‘lmoqda» [6, 18].

Mazkur asarda ham boshqa asarlar singari tarjima qilish qiyin bo‘lgan maqol va matallarni, turg‘un iboralarni ham uchratamiz. H.To‘rabekov ularni

tasvirlanayotgan holatga, voqeaga tayanib ag‘dargan. Uning yutug‘i – bu faqat tajriba va qobiliyat mahsuli bo‘libgina qolmay, balki matn bilan asarning g‘oyaviy-badiiy mazmuni, kontseptosferasi o‘rtasidagi aloqani to‘g‘ri tushuna bilish natijasi hamdir. Misol tariqasida romanning turli boblaridan olingan tarjimalarni keltiramiz. Beshinchchi bob. Ruscha matn:

«Фабрицио любили в Грианте... и, если б не усердная помощь брата, миланская полиция никогда не обратила бы внимания на его отсутствие». [2, 68]

O‘zbekcha tarjimasi:

«Fabritsioni Grianada juda ham yaxshi ko‘risharmish... Agar akasi o‘lib-tirilib yordam bermaganida, Milan politsiyasi uning g‘oyib bo‘lishiga hech qachon e’tibor bermasdi» [3, 76].

Sakkizinchchi bob. Ruscha matn:

«Граф Моска словно воскрес из мертвых, когда узнал по донесениям шпионов, все эти подробности». [2, 126]

O‘zbekcha tarjimasi:

«Graf Moska barcha bu tafsilotlarni eshitganidan so‘ng o‘zini onadan qayta tug‘ilgandek his etdi» [3, 140].

To‘qqizinchchi bob. Ruscha matn:

«Удовольствие отправить этого урода ко всем чертям, наверное, оказалось бы более живучим, чем моя склонность к хорошенькой Мариэтте». [2, 138]

O‘zbekcha tarjimasi:

«O‘sha tasqarani joyi rostonga jo‘natish istagi go‘zal Mariyettaga nisbatan dilimdagи moyillikka qaraganda kuchliroq bo‘lib chiqadiganga o‘xshaydi...» [3, 152].

Ruschada:

«- Поразмыслите над этим и за добный совет сделайте нам подарок: зима уже недалеко, купите мне и Мариэтте по хорошему салопу из... английской материи...». [2, 180]

O‘zbekcha tarjima:

« – Shu to‘g‘rida bir o‘ylab ko‘ring va yaxshi maslahatim uchun bizga biror yaxshi sovg‘a qiling: qish qilichini yalang‘ochlab kelyapti, men bilan Mariyettaga ajoyib ingliz movutidan tikilgan bittadan yaxshi salop olib bersangiz yomon bo‘lmasdi». [3, 199].

«Parma ibodatxonasi»ning o‘zbekcha tarjimasi ayrim kamchiliklardan ham xoli emas, albatta. Shu o‘rinda realiyalarga to‘xtalsak.

Realiyalar asliyatning milliy o‘ziga xosligini ta’minlaydigan unsurlardan biri hisoblanadi. Asliyatning milliy o‘ziga xosligini tarjimada aks ettirish bo‘yicha esa turli qarashlar mavjud. Jumladan, V.Rossels o‘zining “Tarjima va asliyatning milliy o‘ziga xosligi” (Перевод и национальное своеобразие подлинника) maqolasida asliyatning milliy o‘ziga xosligi ifodalangan unsurlarni tarjima qilish masalalariga to‘xtalib, haqli ravishda milliy turmush tarzini ifodalovchi so‘zlar tarjimada o‘zgartirishsiz saqlanishini hamda tarjima qilinayotgan tilda muqobillari mavjud bo‘lgan so‘zlar shu muqobillar bilan almashtirilishini talab qiladi. Jumladan, u rus tilida “господин” ва “здравствуй” kabi muqobillari mavjud bo‘lgan “batoni” va “gamardjoba” kabi gruzin so‘zlarini tarjimada saqlashni ortiqcha deb hisoblaydi va, aksincha, “lavashi” so‘zini tarjimada qoldirish kerak deydi, zero bu so‘z rus kitobxoniga mutlaqo notanish va yangi milliy o‘ziga xoslikni anglatadi [7, 173].

Biz ham V.Rosselsning yuqoridagi fikriga qo‘shilamiz. Ruscha tekstga asliyatda yo‘q «салоп» so‘zini qo‘sghan rus tarjimoni N.Nemchinovaning aybi bilan H.To‘rabekov ham bu so‘zni tarjimada aynan saqlagan va unga izoh berayotib, xatoga yo‘l qo‘ygan. Ruscha nusxada o‘qiymiz:

«- Поразмыслите над этим и за добный совет сделайте нам подарок: зима уже недалеко, купите мне и Мариэтте по хорошему салопу из... английской материи...». [2, 180]

O‘zbekchaga « – Shu to‘g‘rida bir o‘ylab ko‘ring va yaxshi maslahatim uchun bizga biror yaxshi sovg‘a qiling: qish qilichini yalang‘ochlab kelyapti, men bilan Mariyettaga ajoyib ingliz movutidan tikilgan bittadan yaxshi salop olib bersangiz yomon bo‘lmasdi» [3, 199] deya tarjima qilinib, «салоп»га «Ayollarning XIX asr oxirida, XX asr boshlarida urf bo‘lgan keng paltosi (Tarj.)», [3, 199] deb izoh

berilgan. Aslida «*Salop - ayollarning XIX asr oxiri XX asr boshlarida urf bo‘lgan, qish faslida ustiga tashlab olinadigan, qalin va qimmatbaho matodan keng va uzun qilib tikilgan ust kiyimi*» deb izoh berilsa to‘g‘ri bo‘lar edi, deb hisoblaymiz, chunki paltoga yeng tikiladi, ammo salop – bu yengsiz, butun gavdani yopib turadigan uzun yopinchiqdir.

Shu o‘rinda marhum tarjimashunos olim G‘aybullha Assalomning quyidagi so‘zlarini keltiramiz: «Ko‘pchilik xalqlarning tillarida qo‘lga kiritilgan tarjimashunoslik amaliyotining samaralari hamda muayyanlasha boshlagan tarjima tamoyillari shundan dalolat beradiki, tarjima mo‘ljallanayotgan xalq tili uchun yangi tushuncha bo‘ladigan ayrim chet so‘zlarni o‘girmasdan, aynan saqlash ayni muddaodir» [6, 104].

A.V.Fedorov ham tarjimada realiyalarni aks ettirishning yo‘llaridan biri transliteratsiya (realiya bo‘lib kelgan so‘zni bevosita fonetik moslashtirish yoki so‘z negiziga o‘z tilining qo‘sishchalarini qo‘shib berish)dir, deb ko‘rsatadi [4, 79].

Tarjima matnida o‘zbek kitobxoniga tushunarsiz bo‘lgan chet so‘zlar ko‘p saqlangan va ularga izoh berilmagan. Masalan: «*rekrut*», «*paj*», «*sexin*», «*botfort*», «*terek*», «*livr*», «*shtallmeyster*», «*tambur-major*», «*bayokko*», «*kanonik*», «*kanonissa*», «*yeparxiya*» va boshqalar.

H.To‘rabekov asar matniga so‘zma-so‘z emas, ijodiy yondoshgan. «Dialektikaning oddiygina bir antiqasi shuki, mavjud originalga yaqinlashmoqchi bo‘lsang imkonи boricha undan, uning lug‘at qobig‘idan uzoqlashu, asl-mohiyati, fikr, uslub, nafosatini tarjima qil. Tarjimada harfni harf bilan emas, balki qayta-qayta takrorlaymanki, tabassumini tabassum, musiqasini musiqa, ruhiy nafosatini ruhiy nafosat bilan gavdalantirish kerak» [8, 79-80]. Shu nuqtai nazardan H.To‘rabekov amalga oshirgan ushbu tarjima asarga yaxlit qarab, mutarjim tarjimada ba’zi kamchiliklarga yo‘l qo‘yaniga qaramay, asosan asarning kontseptsferasi, undagi g‘oya, personajlarning kechinmalari, ularning qalbidagi isyoni va o‘sha davr ruhiyatini ochib bera olgan va kitobxonga tushunarli tarzda yetkazgan, deya olamiz.

ADABIYOTLAR

1. Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская словесность. М., 1997.
2. Стендаль. Пармская обитель. Роман. Перевод с французского Н.Немчиновой. – Т: Медицина, 1985.
3. Стендаль. Парма ибодатхонаси. Рус тилидан X.Тўрабеков таржимаси. – Т.: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
4. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. -М., 1983.
5. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. -М., 1986.
6. Саломов F. Мақол, мatal ва идиомалар таржимаси. -Т., 1961.
7. Россельс В. Перевод и национальное своеобразие подлинника // Вопросы художественного перевода. - М., 1955.
8. Чуковский К. Высокое искусство. - М.: Искусство, 1964.